

Akramova Feruza Akmalovna

*O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti professori
psixologiya fanlari doktori,
akramova_feruza@mail.ru*

Bilolova Zamira Baxtiyarovna

*"Alfraganus university", "Psixologiya" kafedrası dotsent v.b.
Psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
ORCID ID: 0009-0000-3423-9448*

MUAMMOLI OILALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHDA MEDIATSIYA ZAMONAVIY SAMARALI USUL SIFATIDA

2026-yil – "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"ga bag'ishlanadi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda zamonaviy yondashuv sifatida mediatsiyani qo'llash samarali usul ekanligi, uning asosiy tamoyillari, samaradorlikka erishishda muqobil yo'l bilan oilalarda sog'lom muhitni tarkib toptirish jarayonini amalga oshirish uchun psixologik va xuquqiy savodxonlikka e'tibor berishga doir ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixologik xizmat, psixologik maslahat, oilaviy mediatsiya, xuquqiy va psixologik ta'sir, ijtimoiylashuv maskanlari, oilani yarashtirish komissiyasi, nizoni sudgacha hal etish, mediator, oila muhitini barqarorlashtirish.

МЕДИАЦИЯ КАК СОВРЕМЕННЫЙ ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД ОКА- ЗАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГ ПРОБЛЕМНЫМ СЕМЬЯМ

Аннотация: В данной статье представлена эффективность медиации как современного подхода к оказанию психологических услуг семьям, ее основные принципы и практические рекомендации, разработанные с учетом психологической и юридической грамотности для реализации процесса создания здоровой семейной среды альтернативным способом достижения эффективности.

Ключевые слова: Ключевые слова и понятия: психологическая услуга, психологическое консультирование, семейная медиация, правовое и психологическое воздействие, центры социализации, комиссия по примирению семей, досудебное разрешение спора, медиатор, стабилизация семейной среды.

MEDIATION AS A MODERN AND EFFECTIVE METHOD IN PROVID- ING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO PROBLEM FAMILIES

Annotation: This article examines the use of mediation as a modern approach to providing psychological services to families, its basic principles, and practical recommendations for improving psychological and legal literacy to create a healthy family environment.

Key words: psychological services, psychological counseling, family mediation, legal and psychological literacy socialization centers, family conciliation commission, pre-trial dispute resolution, mediator, family environment stabilization.

Kirish: Jahonda oila qadriyatlarini ahamiyatining zaiflashuvi, noto'liq oilalar sonining ko'payishi, yoshlarning nikoh munosabatlarining rasmiy talablariga nisbatan e'tiborsizligi kabi xolatlarning jamiyatga ta'sir etishi sababli ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish instituti bo'lgan oilani mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. «...Bunday tendentsiyalar, jumladan, oilani ijtimoiy institut sifatida qayta qurish bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning rivojlanishi uchun yangi ijtimoiy vaziyatni keltirib chiqaradi...»¹. Bu borada psixologik xizmatning samarali yo'lga qo'yilishi va uni amalga oshirishning o'ziga xos kreativ yondashuvlariga e'tibor berish, psixologik xizmat jarayonini tashkil etishni takomillashtirish orqali oila muhitini barqarorlashtirish, psixologlarning professional, kommunikativ ta'sir kompetentsiyalarini qaror toptirish orqali faoliyati natijadorligini ta'minlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oilalarda sog'lom o'zaro munosabatlarni o'rnatish,

psixologik muhitni barqarorlashtirish borasida ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, mustahkam oila munosabatlariga salbiy ta'sir etadigan oilada taz'yiq, zo'ravonlikning ijtimoiy-psixologik omillari psixodiagnostikasi va reabilitatsiyasini amalga oshirish, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishga doir ilmiy xulosalar ishlab chiqish, yosh oilalar barqarorligiga ta'sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillar hamda shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan turli darajadagi muammoli vaziyatlardan xalos bo'lishning psixologik ta'sir usullarini ilmiy tadqiq etish, ijtimoiy muhitning shaxsga fasilitativ va ingibitsion ta'siri bo'yicha psixologik muammolarni aniqlash asosida psixolog-mutaxassis faoliyatini takomillashtirish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda oila institutini qo'llab-quvvatlash, psixologik xizmat ko'rsatishni normativ-xuquqiy jihatdan mustahkamlash, inson qadrini yuksaltirish hamda ulug'lashga yo'naltirilgan strategik vazifalar

¹ <https://zamin.uz>

belgilanib, zarur asoslari yaratildi: «Xalq bilan muloqot, odamlarning dardu tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta'minlash ...eng ustuvor vazifa bo'lib qoladi...»², «Oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, «Sog'lom oila - sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish...»³, «... Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi»⁴ tamoyiliga asoslanib, oilaviy psixologik xizmat sifatini oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev fikriga ko'ra: «Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat ruhini yaratish, bunday ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirish muhim bo'lmog'i zarur» ekanligi esa o'z navbatida, oilaga psixologik xizmat ko'rsatish masalalariga doir amaliy psixologiya muammolarni o'rganish va hayotga tatbiq etishni taqazo etmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlar hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur maqolada keltirilgan ilmiy xulosa va takliflar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Oilada yuzaga keladigan turli muammolarni bartaraf etishning ijtimoiy, psixologik, pedagogik, xuquqiy, ma'naviy jihatdan jamiyat kelajagini belgilaydigan muhim omil sifatida oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda mediatsiyani qo'llash samarali usul ekanligini tahlil etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Ijtimoiy va psixologik bilimlarni o'z o'rnida foydalana olish orqali oila barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lgan ajrashish xolatlarini oldini olishga erishish bilan bog'liq masalalarni xorijiy olimlardan A.Adams, V.Berg, S.T.Billingsley, F.Zimbardo, D.Jodelet, R.Chaldini, K.X.Kaufman, Z.Freyd, L.William va

² Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - B. 17.

³ O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi to'g'risida Nizom.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi 228-son qaroriga 1-ilova.

⁴ <https://daryo.uz> 26.12.2020

boshqalar oila bilan bog'liq masalalarini tadqiq etishgan bo'lsa-da, lekin ularning e'lon qilingan ishlarda oilaga psixologik xizmatning ayrim jihatlarigina o'rin olgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi psixolog, faylasof olimlaridan G.M.Andreeva, V.V.Antipov, L.P.Bogdanova, A.Varga, I.F.Dement'eva, T.R.Kirimov, P.R.Novikov, Ye.G.Silyaeva, L.B.Shneyderlar oiladagi shaxslararo munosabatlar, oilaviy nizolarni oldini olishda psixologik xizmatning zarurligi, psixologik maslahatning asosiy talablarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan.[7,8,9,10]

Oilada yuzaga keladigan turli muammolarni bartaraf etishning ijtimoiy, psixologik, pedagogik, xuquqiy, ma'naviy, diniy-falsafiy jihatdan jamiyat kelajagini belgilaydigan muhim omil sifatida zardushtiylikning qadimgi manbai «Avesto», o'tmish mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston», «Minerologiya», Abu Ali Ibn Sinoning «Tadbiri manzil», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarlarida jamiyat taraqqiyoti uchun oila muhitining o'rni, oila barqarorligini saqlash mezonlari haqida g'oyalar ilgari surilgan Tahlil ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti hamda shaxs rivojlanishida oila ta'siri muhimligi e'tirof etilgan. [1]

O'zbekistonda psixologik xizmatni umumiy va oliy ta'limda, mahalla,

sog'liqni saqlash, ijtimoiy guruhlar va mehnat jamoalarida tashkil qilinishni takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik masalalari R.A.Abdurasulov, Sh.R.Barotov, D.Sh.Barotova, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.G.Kamilova, Z.T.Nishonova, A.I.Rasulov, B.M.Umarov, Z.A.Rasulova, Sh.M.Sodiqova, N.A.Sog'inov, O'.B.Shamsiev, U.D.Qodirovlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tahlil ko'rsatadiki, respublikamizda psixologik xizmat muammosini ilmiy-amaliy o'rganish dastavval ta'lim tizimi uchun amalga oshirilgan, keyinchalik ijtimoiy maskanlardan mahalla, sog'liqni saqlash tizimi uchun tadqiq etilgan, lekin oilaviy psixologik xizmatni olib borishda mediatsiyani qo'llash alohida ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganilmagan.[2]

Maqolaning ilmiy mohiyati oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda zamonaviy yondashuv sifatida mediatsiyani qo'llash samarali usul ekanligi, uning asosiy tamoyillari, samaradorlikka erishishda muqobil yo'l bilan oilalarda sog'lom muhitni tarkib toptirish jarayonini amalga oshirish uchun psixologik va xuquqiy savodxonlikka e'tibor berish masalalari yetarli o'rganilmaganligi bilan belgilandi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida oilaviy mediatsiyani oilalar barqarorligini ta'minlashida o'ziga xos psixologik va xuquqiy jihatdan qo'llash zaruratini ifodalaydigan ijtimoiy jarayoni tanlandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar: Tadqiqotda kontent, qiyosiy-mantiqiy tahlildan foydalanildi. Tadqiqotning empirik manbaini anketa so'rovnomalari natijalari tashkil etdi.

Tahlil va natijalar: Psixologik bilimlarning amaliyotga keng joriy etilayotganligi azaldan qo'llanib kelingan psixologik ta'sir vosita va usullardan foydalanishni va psixologik xizmatning metodologik asosini mustahkam tanlanishini talab etadi.

Psixologik xizmat oilalarga yordam ko'rsatishda eng asosiy maxsus soha hisoblanadi, o'z ta'siri va o'rniga egadir. Psixologik xizmat shaxsiy muammolarini hal etishiga yetarli darajada yordam beradi. Shaxsning rivojlanishi, jamiyatda o'z o'rnini to'liq ko'rsata olishi uchun oilalar bilan ishlaydigan psixolog o'z faoliyatida psixologik xizmatni tashkil etishning samarali usullarini qo'llashi maqsadlidir. [11]

Psixologik maslahat hozirgi kunda er-xotinlar bilan ishlash, ota-ona va farzandlarga psixologik maslahat berish, nikohgacha bo'lgan davrda juftliklar bilan suhbat o'tkazish, nikohni bekor qilayotganlarga psixologik yordam ko'rsatish kabilarni qamrab oladi, insonlarga shaxsiy, kasbiy va hayotiy muammolarini hal etishga yordam berish bo'lib, u individual, guruh tarzda o'tkaziladi. [3]

Psixologik maslahat psixologik korrektsiya va psixoterapiya bilan chambarchas bog'liq, ko'p hollarda

amaliyotchi psixologlar faoliyatining ushbu sohalarni bir-biridan ajratish va ularga aniq, mukammal tavsif berishni taqazo etadi.

Demak, muammoli oilalarga o'z vaqtida psixologik xizmatni tashkil etish uchun yangi va samarali usullarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etishini inobatga oldik. Shu jihatdan psixologik xizmatni tashkil etish va olib borishning samarali usuli etib, ilm-fan integratsiyasi sifatida tarbiyaviy, ma'naviy, psixologik, ijtimoiy bilimlar bilan birga huquqiy-demokratik tamoyillarga asoslangan mediatsiya institutini qo'llash zaruratini asoslaymiz.[15,17]

Mediatsiya - kelib chiqqan nizoni taraflarning o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadidagi ixtiyoriy roziligi asosida, xolis bo'lgan shaxs, ya'ni mediator ko'magida hal qilish usuli. Mediatsiya – bu qanday nomlanishidan qat'iy-nazar tizimlashtirilgan jarayon bo'lib, ikki yoki undan ortiq nizolashuvchi taraflar jarayondan mustaqil bo'lgan, tomonlar ilgari surgan yoki taklif qilgan yoki sud tomonidan tayinlangan yoki davlat qonunida belgilagan mediator ko'magida ixtiyoriy asosda kelishmovchilikni bartaraf etish bo'yicha kelishuvga erishishga harakat qilishidir⁵.

Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya — yarashtiruv protsedurasi alohida

⁵ Сайт Федерального института медиации Министерства образования и науки Российской

Федерации, <http://fedim.ru/institut/rukovodstvo-federalnogo-instituta-mediatsii/>

ahamiyat kasb etmoqda. E'tiborlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning imzosi bilan tavsiya etilgan, 3 iyul 2018 yildagi O'zbekiston Respublikasi Senati tomonidan O'RQ – 482 – son «Mediatsiya to'g'risida»gi qonun qabul qililib, 2019 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan va amaliyotga tatbiq qilingandir.

Ushbu qonunning maqsadi – mamlakatimizda nizolarni tartibga solishning muqobil usullarini rivojlantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratish, nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o'zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko'maklashishdan iborat. Mazkur Qonun negizida mediatsiya jarayonining asosiy tamoyillari sifatida maxfiylik, ixtiyoriylik, shaffoflik, o'zaro hurmat, teng huquqlilik, xolislik, taraflarning hamkorligi e'tirof etilgan.

Nima uchun oilaviy nizolarda mediatsiyani alternativ sifatida qaradik? Aytish kerakki nizolar, ajrashish, mulkiy munosabatlarni boshqa odamlar orasida yoki ishtirokida hal etish bir qator noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Jumladan, oiladagi nizodan xabardor bo'lgan shaxslar soni ortadi, begonalar oldida oila masalasini ko'rilishi tomonlarning bir-biriga nisbatan agressiyasi, nafratini kuchaytiradi, har bir tomon o'zining nuqsonini oshkor bo'lganidan g'azablanadi va boshqa salbiy asoratli belgilarni namoyon bo'lishiga olib keladi.

Mediativ kelishuvga asoslangan jarayonda esa, nizolashayotgan tomonlar uchun betaraf bo'lgan uchinchi shaxs yordamida nizoni tartibga solish imkoni bo'ladi va konsensusga kelish amalga oshadi.

O'zbekistonda mediatsiyaga o'xshash yarashtiruv protseduralari turli nizolarni hal etishda qo'llanib kelinadi. Oilalardagi ajrashish muammosiga bevosita daxldor tashkilotlar mavjud ekanligini bilamiz. Jamiyatimizda avvaldan mahalla raislari qo'shnilar, oila a'zolari, er-xotin o'rtasidagi nizolarni hal etish vazifasini, ya'ni mediator vazifasini bajarishgan, bu vazifani yarashtirish komissiyasi amalga oshirgan.

Shunga qaramay: ma'lumotlarga ko'ra, sudlar tomonidan oilalarni yarashish uchun muhlat berilib, bu haqdagi ajrimning ijrosi mahallalardagi yarashtiruv komissiyalariga yuboriladi. Yarashtiruv komissiyalarida esa aksariyat komissiya a'zolari mazkur masalani hal etishga malakasi yetarli bo'lmagan, mutaxassisligi ham mos kelmaydigan xodimlar faoliyat olib borayotganligi tufayli sud tomonidan yuborilgan tavsiyalarni tushunmaslik natijasida oilani saqlab qolinish imkoni boy beriladi.

1. Mahallalardagi yarashtirish komissiyalari va «Ota-onalar universiteti» xodimlari uchun yarashtirish usullariga oid bilimlarni o'rgatish yo'lga qo'yilmagan.

2. Mahalla tizimida faoliyat yuritadigan mutaxassislar oila psixologiyasi, oila turlari, oilaga

psixologik maslahat ko'rsatish masalalarida savodxonliklari sayoz darajada.

3. Xorijga ishlash uchun chiqib ketayotgan fuqarolar bilan diniy, psixologik tushuntirish ishlari olib borish ishlari yo'lga qo'yilmagan, ayniqsa, chet elga oilani iqtisodiy jihatdan ta'minlash, ishlash uchun chiqib ketgan fuqarolarni oilasiga qaytarish va ularni bandligini ta'minlash choralari ko'rilmagan.

4. Mahallalarda tashvishli muammolar: oiladagi zo'ravonliklar, oilalarda o'z joniga qasd qilish – suitsid xolatlari, yosh oilalarning ajrashishiga yoshlarning oila-nikohga tayyor emasligi, oilaviy turmushni yetarlicha tashkil eta olmasligi, yoshlar o'rtasida erta nikoh tuzilishi, ko'pgina oilalarda migratsiya bilan bog'liq muammolarning mavjudligi oilalar

barqarorligiga salbiy ta'sir etishi vaziyatlari uchrab turibdi.

5. Fuqarolarning ushbu organ faoliyati yuzasidan yetarlicha ma'lumotga ega emasligi, ya'ni oilani yarashtiruv komissiyasiga faqat ajratishga oid xulosalarni talab qilishganligi sababli ularga murojaat qilishlari va boshqa omillar.[1,6]

Oilasi buzilish arafasidagi insonlarning mahalladagi yarashtirish komissiyasiga murojaat qilgan yoki qilmaganliklarini aniqlash maqsadida Toshkent shahrida izlanish olib bordik, so'rov natijalaridan ayrimlarini 1-jadvalda keltiramiz.

1- jadval

«Mahalla qoshida tashkil etilgan yarashtirish komissiyasiga oilangizni tiklash uchun murojaat etganmisiz?», savoli natijalari

Toshkent shahar tumanlari	«Ha»	«yo'q»	«muriyat etdim, ammo natija bermadi»	«bunday komissiya borligidan bexabarman»	Javob bermagan
Chilonzor		82,3			17,7
Uchtepa	25,0	41,7	8,3		25,0
Olmazor	27,0	68,8	7,5	4,2	
Shayxontoxur	52,4	14,3	9,5		4,7

Natijalardan ko'rinadiki, o'rtacha hisobda 57,7 % oila vakillari yarashtirish komissiyasiga murojaat qilmaganliklarini e'tirof etganlar. Ajrashish masalasida murojaat etganlarning 26,6 foizi «ha» deb javob berganlar. Demak, yarashtirish

komissiyalari faoliyati imkoniyatidan fuqarolar ham o'z vaqtida va to'la foydalanishni bilmaydilar.

Bundan tashqari, mahallada yarashtirish komissiyasiga a'zo bo'lganlarning mazkur masalada fikrlari o'rganildi: «Yarashtirish komissiyasida

ishlash uchun maxsus o'quv kurslarini o'tganmisiz?» savoliga 68,7 % lar «Hech qanday tayyorgarlikdan o'tmagan»liklarini bildirganlar; ularga berilgan boshqa savol: «Yarashtirish komissiyasi bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar sizda bormi?» ga javoblarda 61,9 % mahalla faollari «yo'q» javobini qayd etganlar.

Mahallalarda oilani saqlab qolish uchun yarashtirish komissiyalariga qilingan murojaatlar salmoqli raqamlarni tashkil etadi, lekin yuqorida qayd etilgan omillar tufayli oilalar muammolari yechilmay qoladi. Toshkent shahri tumanlarida mahalla qoshidagi yarashtirish komissiyalari faoliyati tahlili amalga oshirilganda mahallaga yarashish yoki boshqa nizoli vaziyatlar bilan murojaat qilgan shaxslarning bu talablari kompetentsiyaviy hal etilmagan, ya'ni, maxfiylik, betaraflik, xolislik, o'zaro hurmat tamoyillariga ko'pincha rioya etilmaslik yuz bergan. Mahallada kimdir kimgadir yaqin bo'lishi, uni yonini olish, yoki sirini oshkor etilishi shaxsda noqulaylik holatlarini, psixologik diskomfortni yuzaga keltirgan.

Amaliyotda mavjud bo'lgan mahallalardagi yarashtirish komissiyalari faoliyati haqidagi 82 nafar murojaat qilgan mahalla fuqarolarining fikrlari tahlil etildi. Unga ko'ra, ushbu fikrlar qayd etilgani aniqlandi:

“Yarashtirish komissiyasi – bu:

mahallada hayotiy tajribaga ega bo'lgan fuqarolardan iborat guruh, uning tarkibi o'zgarib turadi;

fuqarolarning oila muammolari muhokama qilinadi, protokol uchun xujjat yuritiladi;

reglament, normativ ishlab chiqilmagan;

shaxsiy fikr komissiya a'zosining yoshi, obro'si bilan belgilanadi;

ajrashishga qaror qilgan oila a'zolari bilan jamoaviy suhbat olib boriladi;

ajrashish sababi jamoa orasida muhokama qilinishi tomonlar orasida nizoni kuchaytiradi;

shaxs daxlsizligi, fikrini ayta olishi, ajrashish sababi kabi omillar yuzaki so'raladi, vaqt resursi cheklangan”.

Yarashtirish komissiyasiga oid fikrlar tahlilidan ko'rinadiki, oila muammolarida oila a'zosining sha'ni, obro'siga putur yetadi, o'z oilasi muammosini oshkor etish istagi bo'lmaydi, komissiya a'zolari oldida o'zini nochor his etadi, ayblilik va aybsizlik hissi uning mahallasi, yaqinlari, tanishlaridan begonalashuviga olib keladi, ruhiy xolati buziladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish yarashtirish komissiyasining samarali faoliyatiga ushbu omillar ta'sir ko'rsatishi yaqqol kuzatildi:

1. Yarashtirish komissiyalarining tarkibi doimiy professional asosda faoliyat olib boruvchi a'zolar bilan ta'minlanmaganligi;

2. Komissiya tarkibi 8-12 nafar a'zodan iborat bo'lib, tarkibda oilaviy nizolarga psixologik va yuridik nuqtai-nazardan baho bera oladigan

mutaxassislarining kiritilmaganligi tufayli uning faoliyati samaradorligi keskin pasayishi va boshqalar.

Oilalardagi nizolarni o'rganish, ajrashish sabablarini tahlil etish murakkab masala bo'lganligi bois, oilaviy nizolar, ajralishlarning ko'payib borishi va jiddiy ijtimoiy oqibatlarini xisobga olib, shu tariqa mediatsiyani qo'llash samarali bo'lishi belgilandi. Shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal

qilishga qaratilgan mediatsiya usuli alohida ahamiyat kasb etishi, oilalarga ko'rsatiladigan psixologik xizmatning mazkur usulini qo'llash zarurati ko'rindi.

Oilaviy mediatsiya sohasida chuqur tadqiqotlar olib borgan Britaniyalik tadqiqotchi Liza Parkinson huquqiy maslahatchilar va oilaviy mediatorlarning ijtimoiy roli va mas'uliyatini o'rgangan holda, ular o'rtasidagi quyidagi farqlarni keltirgan⁶, 2-jadvalga qarang.

2 – jadval.

Liza Parkinson bo'yicha oila muammolarida psixolog va xuquqshunoslar xizmati

Xuquqshunos maslahatchi	Oilaviy psixolog-mediator
Faqat o'z mijozi oldidagina mas'uliyati bor	Ikki tarafga ham teng va adolatli yordam ko'rsatadi
O'z mijozlari o'rtasidagi nizoning o'tmishidan boshlaydilar	Nizo tarixidan ko'ra, real holatni aniqlab, tomonlarning o'zaro maqbul kelishib olishiga yordam beradi
Mijozlarga faqat qonuniy vaziyatlardan kelib chiqib, maslahat beradi	Asosiy e'tiborni tomonlarning muammolariga qaratadi
Rasmiy taqdim etilgan hujjatlarga asoslanadi	Tomonlar ishtirokida ma'lumotlarni aniqlashtiradi
Suhbatda qonunga oid terminlardan foydalanadi	Tomonlar uchun tushunarli bo'lgan oddiy terminlardan foydalanadi
Mijozlarni emotsional qo'llab-quvvatlash va norasmiy maslahatlar beradi	Tomonlarning hissiyotini anglash, g'azabini jilovlashga yordam beradi
Natijaga erishishda harakatlar ketma-ketligini tavsiya qiladi	Tomonlarga bir necha alternativ yechimlar taklif qiladi, maslahat bermaydi
Mijozlar bilan yuzma-yuz uchrashuvlarda faqat huquqiy tomonni tushuntiradi	Tomonlar o'rtasida tushunish muloqotini o'rnatadi va zarur bo'lganda aralashadi
Mijozlar nomidan ish yuritadi ish yuzasidan nazoratni o'z qo'lga olishi mumkin	Tomonlarga muammolarni nazorat qilib turishga yordam beradi

⁶ Паркинсон Л. Семейная медиация, М.: Межрегиональный центр управленческого и политического консультирования, 2010г.

Ish yuzasidan sudga arizalar bilan murojaat qiladi	Ish yuzasidan sudga arizalar bilan murojaat qilmaydi
Ishni faqat yuridik jihatdan ko'rib chiqadi	Masalaga turli bilim va ko'nikmalardan kelib chiqib yondashadi

2-jadvalda keltirilgan farqlar mohiyatiga nazar solsak, xuquqiy masalalarda ham psixologik yondashuv bor ekanligi yaqqol ko'rinadi. Bu o'z navbatida hozirgi oilaviy muammolarni hal etish amaliyotida psixologik maslahatni joriy etish bilan birga xuquqiy xizmatni birgalikda olib borish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan Liza Parkinson fikricha, oilaviy mediatsiya ko'pincha ajralish yoki nikohni tugatish holatlarida qo'llash, tomonlarning ota-onalik maqomlarini saqlab qolishi va majburiyatlarini bajarishida yordam beradi.

Amaliyotda «oilaviy mediatsiya» qoidaga ko'ra nikohni bekor qilishda yuzaga keladigan nizolarni tartibga solish, alohida yashayotgan ota-onalarning farzand tarbiyasida ishtirok etish, aliment miqdorini aniqlash, umumiy mulkni bo'lish va boshqa masalalarga nisbatan qo'llaniladi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, uchinchi shaxs ko'magida muammoni hal qilish usuli – mediatsiya qadim tarixga ega bo'lib, jumladan, Shumerlar davlati, Yunoniston, Hindiston, Rimda foydalanilgan. Zamonaviy ko'rinishdagi mediatsiya usuli esa XX asrning o'rtalarida AQSh, Buyuk Britaniyada amaliyotga kiritilgan.

AQShda nizolarni hal qilishning milliy instituti tashkil etilib, u

mediatsiyaning yangi usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Buyuk Britaniya, Xitoy, Gonkong, Koreya, Hindiston kabi mamlakatlarda ham mediatsiya xizmati tashkil etilgan va muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda, betaraf vositachilar ishtirokida yarashtirish tartibi hamda maxsus telefon xizmati yo'lga qo'yilgan. [1]

«Mediatsiyaning ayrim tomonlari bo'yicha Yevropa direktivasi»ga asosanib, mediatsiya instituti AQSh, Kanada, Avstraliya va Yevropaning ko'plab davlatlarida nizolarni hal etishning asosiy vositasiga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa Ittifoqi davlatlari va AQShda yiliga 85% nizolar o'rtacha bir yarim kun mobaynida mediatsiya orqali hal etilgan, 6% kelishmovchiliklar vositachilik qo'llangandan so'ng 3 oy davomida tinchlik yo'li bilan yechilgan, 9 % gina sudgacha chiqarilgan, 80% ga yaqin oilaviy kelishmovchiliklar, 85% mehnat, xizmat va fuqarolik ishlariga oid nizolar mediatsiya institutlari va markazlari yordamida hal etilgan.

Angliyada mediatsiya davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, oilaviy nizolarda mediatsiya xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi. Avstriyada esa oilaviy nizolar mediatsiya yordamida majburiy o'tkaziladi.

Mediatsiya nizolarni hal etishning eng keng tarqalgan alternativ usuli

hisoblanib, bugungi kunda fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida deyarli barcha rivojlangan davlatlar amaliyotida qo'llaniladi. Xalqaro miqyosda esa oilaviy mediatsiya masalalarini mustaqil tartibga soluvchi xujjat sifatida «Evropa Ittifoqining Rec №(98) 1 sonli Tavsiyalari»ni keltirish mumkin.

Ajrashayotgan tomonlarga mediatsiya institutini majburiy qilib belgilanishi mediatorlarga bo'lgan murojaatlarni ko'payishiga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda bu usul jahon amaliyotida 75% majburiy mediatsiya, 23% ixtiyoriy mediatsiya va 1% sud qarori asosida belgilangan mediatsiya hissasiga to'g'ri kelganligi ham salmoqli ulushni bildiradi. MDH davlatlari uchun mediatsiya hozircha yangi innovatsion institut xisoblanadi.

Xulosa va takliflar: Demak, mediatsiya vaqtni, insonni emotsional resurslarini tejash, mentalitet va qadriyatlarni hisobga olgan holda nizolarni noan'anaviy, hayotiy, tinch va barqaror yo'llar orqali yechishga qulay usuli hisoblanadi.

O'zbekistonda mediatsiya institutini qo'llashda va amaliyotga tatbiq etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonuniga binoan amaliyotga tatbiq qilingan oilaviy mediatsiya samarali usul bo'la oladi.

Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda zamonaviy yondashuv sifatida mediatsiyani qo'llash samarali usul ekanligi bo'yicha quyidagi

takliflarni kiritish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

1. O'zbekistonda mediatsiya institutining huquqiy va institutsional asoslarini yaratish va nikohga oid qonunchilikda maxsus yo'nalish sifatida kiritish.

2. Mediatsiya sohasida asosan ijtimoiy soha vakillari psixologlar, psixoterapevtlar, oilaviy konsultantlar shug'ullanishi zarurligini ko'rsatmoqda. Professional mediatsiya bilan faqat advokatlarning shug'ullanishi oilaviy nizolarda tomonlarning psixologik holatiga yetarlicha baho bera olish imkoniyatini bermaydi. Shu nuqtai-nazardan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursini o'tagan, shuningdek professional mediatorlarning ro'yxatiga kiritilgan yuridik va psixologiya sohasida ta'limga ega shaxslar amalga oshirishi kerak ekanligini Qonunga kiritish lozim.

3. Oilaviy mediatorlar tayyorlash borasida oliy o'quv yurtlari yoki ilmiy-amaliy markazlar qoshida yuridik va psixologiya yo'nalishida ta'lim olgan mutaxassislar uchun mediatsiyaning asoslari to'g'risida, mediatsiya bosqichlarining mantiqiy ketma-ketlikda o'tkazish va olib borishning umumiy shart-sharoitlari, muzokaralar va muloqot qilish texnikasi, konflikt tushunchasi, mediatsiyani huquqiy tartibga solish borasida bilimlarga ega bo'lishni ta'minlovchi kurslar tashkil etish; psixolog-yurist mediatorlar tayyorlashni amaliyotga tatbiq etish zarurdir.

4. Oilaviy mediatsiya institutini moliyalashtirishning mexanizmlarini yaratish borasida oilaviy mediatsiya dasturlarini davlat tomonidan moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadlidir.

5. Oilaviy mediatsiyani ommalashtirish (televidenie va boshqa OAVida) oilaviy nizolarni hal etishda

samarali vosita ekanligini targ'ib etib borish zarur.

6. Oila munosabatlarini tartibga solishda mediatsiya nizolarni hal etishda muqobil usul sifatida amaliyotda qo'llash yakka tarzdagi nizolarni va oilaviy huquqiy-psixologik munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bilan bog'liq munosabatlarni tartiblashtirishda qo'llash samaralidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Акрамова Ф.А. Ўзбекистонда оилавий психологик хизматнинг ижтимоий-психологик муаммолари: Монография. –Т.: «Lesson-press» нашриёти, 2021 й. – 178 б. [ISBN 978-9943-7024-5-5]
2. Акрамова Ф.А. Оилавий психологик хизмат: хориж тажрибасининг Ўзбекистон таълимидаги имкониятлари / Замонавий таълим 2020 № 8, Б.94-101.
3. Akramova F.A. Oz'bekistonda oilaviy psixologik xizmatning asosiy muammolari / Maktab va hayot, 2020 № 6. B.7-9.
4. Акрамова Ф.А. Основные проблемы проведения психологической службы семьям / ТДПУ илмий ахборотлари 2021. № 2, Б. 89-93.
5. Акрамова Ф.А. Оилага хизмат кўрсатиш – оила мустақкамлигини таъминловчи муҳим омил сифатида. / Pedagogika, № 4 2021. Б.22-26.
6. Акрамова Ф.А. Оилага психологик хизмат кўрсатиш долзарб муаммо сифатида. / Замонавий таълим, 2021 № 11. Б.64-71.(19.00.00. № 8).
7. Billingsley S., Ferrarini T. Family policy in 21 European countries / Journal of Marriage and Family. 2014. VOL.76, № 2. P. 428-445.
8. Jodelet D. Representation social: phenomenes, concept et theore / Moscovici S. (ed.) – Paris, 1984. – 412 p.
9. Kaufman K.X. Politics Family in Europe / Family Life and Family Policies in Europe. Oxford University Press. 2002. Vol. 2.
10. William L. Cook, David A. Kenny. Application of the Social Relations Model to Family Assessment. Source: Journal of Family Psychology, Vol. 18, No. 2, 361–371. Impact factor: 3.8.
11. Билолова, З. Б. (2023). Турмуш қуриш ёшидаги қизларни оналикка тайёрлашнинг ижтимоий-психологик муаммолари. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 886-893.
12. Bilolova, Z. B. (2026). The role of cognitive psychotherapy in stabilizing marital relationships and providing psychological services to couples. *World Bulletin of Education and Learning*, 2(2), 83-88.

13. Bilolova, Z., & Allaberganova, N. (2024). Oilaviy ruhiy zo'riqish holatlarida psixologik xizmatni tashkil etish yo'nalishlari. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 2(2), 21-27.
14. Baxtiyarovna, Z. B. (2025). Inson xotirasining individualligi: shaxsiy va ijtimoiy omillar ta'siri. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 3(32), 40-42.
15. Bilolova, Z. Yoshlarni Ota-onalik Mas'uliyatiga Tayyorlash-Psixologiyani Dolzarb Muammosi Sifatida. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*, 675462.
16. Otajonova, D. R., & Bilolova, Z. B. (2024). Sog'lom bola rivojlanishida raqamli autizm muammosining ijtimoiy-psixologik masalalari?. *Inter education & global study*, (9 (1)), 506-513.
17. Baxtiyarovna, Z. B. (2025). Yangi o'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya qadriyatlarining o'zgarishi. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, 2(2), 60-62.
18. Tulyaganova, D. Oilaviy Nizolarning Bolalar Psixikasiga Ta'siri. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*, 676030.
19. Ravshanovna, R. M. T. (2026). Noto'liq oila va undagi ijtimoiy-psixologik muammolarning yuzaga kelishi. *Media va sun'iy intellekt integratsiyasining ilmiy asoslari va zamonaviy muammolari*, 1(1), 356-358.
20. Abduraimova, N., Sharopova, N., Khujaev, M., Sapayev, V., Fattoyeva, O., & Yusufov, S. (2025). Economic development through analysis of the education and entrepreneurship impacts. *Economic Annals-XXI/Ekonomičnij Časopis-XXI*, 214(3/4), 84.
21. Gupta, D., Iroda, K., Faridovna, I. M., Hamidova, M., Muminjon, K., Saidjonovich, M. S., & Babayeva, Z. (2026). School-Based Support and Educational Transitions: Communication and Cognition in Genetic Syndromes. In *Interdisciplinary Perspectives on Genetic Syndromes and Human Development* (pp. 27-62). IGI Global Scientific Publishing.
22. Rustamova, M. T. R. (2026). Noto'liq oiladagi ona va farzandlar o'rtasida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-psixologik munosabatlarning ilmiy talqini. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 6(20), 450-452.